IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

ZULFIYA ISROILOVA SHE'RIYATIDA UCHRAYDIGAN LISONIY HODISALAR

M.Husaynova
TATU Farg'ona filiali O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
D.Rustamova
TATU Farg'ona filiali 621-22-guruh talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada Zulfiyaxonim Isroilova hayoti va ijod yo'li to'g'risida ma'lumotlar beriladi.Bundan tashqari "Bahor keldi seni so'roqlab " deb nomlangan she'rlari va unda uchraydigan so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari hamda ko'chim turlaridan metaforaga oid misollar tahlil ostiga olinadi.

Kalit so'zlar : sinonim, omonim, antonim, metafora , ruhiyat , bahor elchisi .

"Zulfiyaxonim xotirasiga bag'ishlov"
Bahorning elchisi deya atalgan
Ilk moychechak qatori edi.
Qalbi jo`shqin bahor singari
She'riyat elchisi Zulfiya edi.
Uning she'rlarida dard-u, alam bor.
Ba'zan baxtdan, darddan so'zlardi.
Hamid Olimjonin chin dildan kutib,
Sog'inch hislarini she'rga bitardi.

O'zbekiston xalq shoirasi, jurnalist, tarjimon va jamoat arbobi Zulfiyaxonim Isroilova - taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonovor kurashgan ayol timsolidir.

Bahorning elchisi qaldirg'och bo'lsa , o'zbek she'riyatidagi bahor elchisi esa Zulfiyaxonim hisoblanadi. U 1915-yilning 1-martida hunarmand-degrezchi oilasida Toshkentda tavallud topgan. Shunga qaramay, ota-onasi yuqori madaniyatli insonlar bo'lishgan . Uning ilk she'ri 1931-yilda „Ishchi" gazetasida bosilgan. Dastlab 1932- yil „Hayot varaqalari" she'rlar to'plami nashr etilgan. Ayniqsa, Hamid Olimjonning bevaqt vafotidan keyin yozilgan, ruhiy zilzilalar va qalb iztiroblari bilan to'la she'rlar Zulfiya ijodida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganidan darak beradi. U shaxsiy fojiasi tasviri orqali Ikkinchi jahon urushidan katta talafot va yo'qotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarini ifodalaydi. Lekin ko'p o'tmay, o'zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she'r va publitsistik maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarining poymol bo'lmasligi uchun kurashdi.

„Mushoira", „O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", „Qozog'iston o'lanlari", „Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi.

Shoiraning ijodiga nazar solar ekanmiz, she'rlaridagi o'xshatishlar, tashbehlar va so'zlarning qay darajada mohirona qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Salqin saharlarda , bodom gulida,

Binafsha labida , yerlarda bahor.

Qushlarning parvozi, yellarning nozi,

Baxmal vodiylarda , qirlarda bahor

Ushbu misralar go'zal so'zlar orqali boshlanar ekan , bir necha yillar avval yozilgan bo'lsa- da , shu vaqtgacha o'z qiymatini yoqotmadi. Buning chin sababi esa bu she'rdagi yoshlik zavqi, bahoriy kayfiyat va umrboqiy muhabbat hisoblanadi. Mazkur she'rdagi *binafsha labida ,yellarning nozi, baxmal vodiylarda* kabi jumlalari metafora qo'llanganligidan darak beradi.

Binafshaning labi , yellarning nozi, baxmal vodiy kabi birikmalarda adibamiz so'zlarni juda ta'sirli qo'llanilishiga katta ahamiyat bergan .Aslida esa binafshaning labi bo'lmasligi , yellarning nozi esa shabbodaning o'ynoqi bo'lib

esayotgani va ba'zan esib, ba'zan xotirjam to'xtami haqida, baxmal vodiy esa bahorda hamma yoq yam-yashil tusga kirganligini ifodalaydi.

Metafora (gr. metaphora – ko'chirish) – nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatilishi.[1]

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni ,

O'rik gullarining eding maftuni.

Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi,

Ko'zlaringga surtib o'parning uni.

Mazkur satrlarda ham metafora qo'llangan. *Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni, uyg'ongan kurtak* kabi misralari metaforadan dalolat beradi. Bag'ri bahorni sevishi, uning maftuni ekanligi,har uyg'ongan kurtak unga hayot berishi buning yaqqol aksidir.

Mana, qimmatligim,yana bahor kelib,

Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.

Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,

U ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.

Seni izlar ekan, bo'lib shabboda

Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.

Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,

Yashil qirg'oqlarni qidirib chiqdi.

Mazkur misralarda, *izlab yurdi, qidirib chiqdi, husn-ko'rk* kabi so'zlari esa *sinonim* so'zlar ekanini bildiradi. Bu misralarda sinonimlardan tashqari omonimlar ham qatnashadi. Bular *yoqa, yosh, bog', yozmoq* kabi so'zlar shular jumlasidandir. Shoiramiz bu shunday so'zlarni shunday o'rni- o'rni bilan qo'llaydi-ki, xoh tinglovchi bo'lsin, xoh ijodkor bo'lsin ammo bu she'rni yozish uchun tebratilgan qalam uni o'ziga jalb qila oladi.

Shaklan har xil, ammo aynan bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi (gr. synonymos – "bir nomli"). Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi.[2]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, adibamizning "Bahor keldi seni so'roqlab" nomli she'ri juda ko'p chiroyli o'xshatishlardan iborat. Mazkur she'rni ilk marotaba tinglagan inson o'zida yo'q shavq va zavqqa to'ladi desak yanglishmagan bo'lamiz. Chunki, bu she'rda o'zgacha his, ishonch, sog'inch, dard-u alam va bahoriy kayfiyat yashiringan. Bu barcha his-tuyg'ularni o'z ichiga olgan she'r tinglovchilarini o'ziga bo'lgan ishonchini va muhabbatini yanada oshiradi va butun umri davomida unutmaslik uchun doim o'ziga chorlab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. R.Sayfullayeva "Hozirgi o`zbek tili ". Hosila sememaning vujudga kelish yo'llari. Toshkent 2019, 133- bet. 31-dars.
2. R.Sayfullayeva "Hozirgi o`zbek tili ". Leksik – semantik munosabatlar Toshkent 2019, 137- bet.32-dars.
3. https://tafakkur.net/bahor-keldi-seni-soroqlab/zulfiya.uz
4. https://mmp.tma.uz/2020/07/tibbiy-profilaktika-fakulteti-2-bosqich-203

[1] R. Sayfullayeva " Hozirgi o'zbek tili".Hosila sememaning vujudga kelish yo'llari. Toshkent 2019,133-bet. 31-dars.

[2] R. Sayfullayeva ." Hozirgi o'zbek tili" . Leksik – semantic munosabatlar Toshkent 2019,137-bet .32-dars.